

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH  
MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish  
markazi  
hududiy xay‘at rasi  
M.T.Xakimova

« 5 » 03 2025 y



**« TASDIQLAYMAN»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi  
direktori

L.X.Musadjanova

« 4 » 03 2025 y



**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

**NEONATOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI**  
(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

**O‘QUV DASTURI**

(144-kredit)

**Toshkent-2025 yil**

**TUZUVCHILAR:**

- L.X.Musadjanova Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi direktori, t.f.d. professor.
- B.B.Giyasova Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi
- N.N.Ergasheva Toshkent Tibbiyot Pediatriya instituti PhD "Oilaviy shifokorlik" JT,FM kafedra assistenti

**TAQRIZCHILAR:**

- F.R.Abduraxmonova RIPIATM "Neonotologiya" bo'limi mudirasi, tibbiyot fanlari nomzodi PhD oliy toifali shifokor

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 » 03 2022 y.

Pedagogik kengash raisi



bayonnoma № 2/1

L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 » 03 2022 y.

bayonnoma № 2

## 1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o‘rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-son va 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2020-yil 15-iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i O‘zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. O‘quv dasturni ishlab chiqishda JSST va YuNISEF tomonidan tavsiya etilgan onalar va bolalarga universal-progressiv modeli bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, yo‘riqnomalar bilan ishlash, Milliy klinik protokollar bo‘yicha tavsiyalardan foydalanilgan. O‘quv dasturi modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. O‘quv dasturi “Neonatologiyada hamshiralik ishi”yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlarini 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan.

Dastur kasbiy rivojlanish va mutaxassislik fani modullaridan iborat bo‘lib, ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy ta’limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlagan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

### 1.1. Maqsad:

O‘qish natijasida o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. Hamshiralarni har tomonlama yetuk mutaxassisliklari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, neonatologiya fanidan yangi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

## **1.2. Vazifalar:**

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini Modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan O'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish;
- tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- tibbiy etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlarini shakllantirish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;
- amaliyotda sog'liqni saqlash bo'yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar, va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko'nikmalarini olib borish;
- yordamga muhtoj chaqaloqlarni zamonaviy tashxislash usullari, malakali yordam ko'rsatish ko'nikalari bilan tanishtirish va o'rgatish;
- ona sutining ahamiyati, sog'lom tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash, istisnosiz ko'krak suti bilan emizishning muammolarini aniqlash;
- chaqaloq hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukamallashtirish;
- patologiya bilan tug'ilgan chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini olib borish;
- asfiksiyada tug'ilgan chaqaloqlarga samarali reanimatsiya o'tkazish ko'nikmalariga o'rgatish;
- muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarga xos bo'lgan xavfli omillarni aniqlash ko'nikmalarini yangilash;
- zamonaviy jihozlar bilan tanishtirish va ulardan foydalanishga o'rgatish;
- irsiy kasalliklarda chaqaloq va uning oilasiga ko'rsatiladigan hamshiralik parvarishi bo'yicha maslahatlar berish;
- tug'ma nuqson bilan tug'ilgan chaqaloqlar oilasiga ko'rsatiladigan hamshiralik parvarishi bo'yicha maslahatlar berish;
- tug'ruq jarohatlari bilan tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash;
- chaqaloqlarda uchraydigan shoshilinch xolatlarda hamshiralik yordamini ko'rsatish ko'nikmalarini yangilash.

### **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O'quv dastur bo'yicha tug'ruq komplekslari va perinatal markazlarida faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan hamshiralar uchun mo'ljallangan.

### **1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalariasoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning xuquqiy me'yorlarini, bemor xuquqlarini, rad etish mezonlarini bilish;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshira olish;
- ona va bola salomatligini saqlash bo'yicha direktiv hujjatlarni o'rganish, me'yoriy hujjatlarni yuritishni bilishi;
- chaqaloqni parvarishlashda ko'nikmalarni o'zlashtirish;
- chaqaloqlarda patologik holatlarni aniqlashda zamonaviy tekshirish usullari xaqida ma'lumotga ega bo'lish;
- chaqaloqni parvarishlashda ko'nikmalarni o'zlashtirish bo'yicha onalarga yordam berish;
- shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralarini qo'llay olish.

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy parvarish va profilaktika choralarini qo'llash, «Sog'lom avlod», «Ona va bola» Davlat dasturining asosiy yo'nalishlari, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutiqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 144 kredit (kuniga 6 kredit xaftada, 36 kredit).

### **1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:** Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020-yil 15-iyundagi №160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9-<sup>00</sup> da boshlanib, 13-<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. Malaka oshirishdan so‘ng:** O‘quv kursni to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “ Neonatologiyada hamshiralik ishi” bo‘yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. Rejalashtirilayotgan ta‘lim natijalari**

### **2.1. Rejalashtirilayotgan ta‘lim natijalaridan so‘ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar:**

- o‘rta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish, ona - bolalar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- intizomiy, ma‘muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo‘yicha o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida tashhishlash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, ko‘nikmalarni mustahkamlash;
- ona va bola salomatligini muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik va bexatar onalik dasturlari asosida ona va bola sog‘lig‘ini saqlashga yo‘naltirilgan hamshiralik jarayoni, samarali perinatal yordamini tashkil etish va parvarishni olib borish;
- sog‘lom chaqaloqni ahvolini aniqlash, baho berish;
- tibbiy hujjatlarni sifatli yuritish tartibi bilan tanishadi;
- bexatar onalik bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish qobiliyati yangilanadi;
- issiqlik zanjirini saqlash bo‘yicha ko‘nikmalari yangilanadi;
- Apgar shkalasi bo‘yicha baholash qobiliyati yangilanadi;
- ko‘krak sutining ahamiyatini onalarga tushuntirib berish mahorati oshadi;
- chaqaloqqa o‘tkaziladigan emlash tartibi bilan tanishadi;
- chaqaloq muammolarini aniqlashni, chaqaloqning holatiga qarab, hamshira parvarishi, yordam ko‘rsatish rejasini tuzish bo‘yicha mahorati oshadi;
- chaqaloqlarda kasallikni oldini olish, ularning imkoniyatlarini o‘rganadi;
- tug‘ma nuqson bilan tug‘ilgan chaqaloqlar oilasiga ko‘rsatiladigan hamshiralik parvarishi bilan tanishadi;

- Daun sindromi, Patau sindromi, fenilketonuriya va galaktozemiya bilan tug‘ilgan chaqaloqlarda hamshiralik parvarishini olib borish ko‘nikmalari yangilanadi;
- gestatsion holatiga ko‘ra ekstremal kam vaznda tug‘ilgan chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini olib boradi;
- kam vaznli chaqaloqlarning parvarishlash ko‘nikmalari yangilanadi;
- tug‘ruq jarohatlari bilan tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarishlash ko‘nikmalari yangilanadi.

### 3. DASTUR MAZMUNI.

#### “Neonatalogiyada hamshiralik ish” kursi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>32</b>	<b>16</b>	<b>16</b>		
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	<b>Mutaxassislik fanlar moduli</b>	<b>104</b>	<b>44</b>	<b>60</b>		
2.1	Modul. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish va klinik baholash	30	12	18		
2.2	Modul: Muddatidan oldin tug‘ilgan va kam vaznli chaqaloqlarda hamshiralik parvarishi	24	10	14		
2.3	Modul: Neonatal davridagi kasalliklar	26	14	12		
2.4	Modul: Irsiy kasalliklarda va tug‘ma nuqsonlarda hamshiralik parvarishi	12	4	8		
2.5	Modul: Tug‘ruq jarohatlari bilan tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarishlash.	6	2	4		
2.6	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.	6	2	4		

<b>3.0</b>	<b>Tanlov fanlar moduli</b>	<b>4</b>			<b>4</b>	
	<b>Attestatsiya</b>	<b>4</b>				<b>4</b>
	<b>Jami:</b>	<b>144</b>	<b>60</b>	<b>76</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

## **“Neonatalogiyada hamshiralik ishi “kursi o‘quv modullarining mazmuni**

### **1.1.Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

### **1.2.Modul: Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari.**

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

### **1.3.Modul: Modul: Infeksion nazorat.**

Infeksion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalaniish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

### **1.4.Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.**

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar. Sterilizatsiyani olib borish xonalariidagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

### **1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik**

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

### **2.1. Modul. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish va klinik baholash**

Mazkur modul yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish, ularning anatomo-fiziologik xususiyatlarini chuqur o'rganish va klinik baholashga bag'ishlangan. Tinglovchilar chaqaloqning holatini aniqlash, antropometriya o'tkazish, issiqlik zanjirini ta'minlash, ona suti bilan boqish siyosatini qo'llash va reanimatsiya asoslarini o'rganadilar. Modul davomida chaqaloqlarda moslashuv jarayonlari, fiziologik holatlar, ABSD algoritmi, shoshilinch holatlarda parvarish choralari ko'rsatish, zamonaviy tibbiy apparatlar bilan ishlash va ularni dezinfeksiya qilish ko'nikmalarini shakllantiriladi. Natijada tinglovchi yangi tug'ilgan chaqaloqlarni baholash, parvarish qilish, ona suti bilan boqish, reanimatsiya choralari bajarish va nafas olish buzilishlarida apparatlardan to'g'ri foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

## **2.2. Modul. Muddatidan oldin tug‘ilgan va kam vaznli chaqaloqlarning parvarishi**

Ushbu modul muddatidan oldin tug‘ilgan hamda kam vaznli chaqaloqlarning anatomo-fiziologik xususiyatlari, ularni parvarish qilish, ovqatlantirish va profilaktika tadbirlarini o‘rganishga qaratilgan. Tinglovchilar Ballard va Apgar shkalalari bo‘yicha baholash, termoregulyatsiya tamoyillari, kuvezdan foydalanish, ovqatlantirish va parenteral qo‘llab-quvvatlash usullarini amalda o‘zlashtiradilar. Shuningdek, nekrotik enterokolitda hamshiralik yondashuvi, apparatlar bilan ishlash, dezinfeksiya qoidalari, kam vaznli chaqaloqlarda parvarish va kuzatuv tartibi o‘rgatiladi. Modul yakunida tinglovchi muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarda xavf omillarini aniqlay olish, kuvezdan to‘g‘ri foydalanish va parvarish choralari bajarish malakasiga ega bo‘ladi.

## **2.3. Modul. Neonatal davr kasalliklari**

Mazkur modul neonatal davrda uchraydigan kasalliklar — giperbilirubinemiya, gemolitik va gemorragik kasalliklar, tug‘ma infeksiyalar, nafas yo‘llari patologiyalari hamda sepsis, meningit, zotiljam, osteomiyelit kabi infeksiyon jarayonlarni qamrab oladi. Tinglovchilar ushbu kasalliklarning klinik belgilari, tashxis qo‘yish va parvarish tamoyillarini o‘rganadilar. Fototerapiya texnikasi, bilirubin miqdorini aniqlash, TORCH infeksiyalarida parvarish, OIV, gepatit V, sil va zaxm bilan kasallangan onalardan tug‘ilgan chaqaloqlarga yordam ko‘rsatish usullari o‘zlashtiriladi. Modul yakunida tinglovchi neonatal kasalliklarda parvarish choralarini amaliy bajarish, fototerapiya o‘tkazish, infeksiyon nazorat va ARV terapiyasi tamoyillarini to‘liq bilib oladi.

## **2.4. Modul. Irsiy kasalliklar va tug‘ma nuqsonlarda hamshiralik parvarishi**

Modulning mazmuni yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda uchraydigan irsiy kasalliklar va tug‘ma nuqsonlarni erta aniqlash hamda parvarish qilishga qaratilgan. Tinglovchilar skrining markazlari faoliyati, genetik sindromlar, tug‘ma gipotireoz, fenilketonuriya va boshqa irsiy kasalliklarning klinik belgilari bilan tanishadilar. Shuningdek, tug‘ma nuqsonli chaqaloqlarda hamshiralik parvarishi, insonparvarlik tamoyillari va oilaviy maslahat ishlari o‘rganiladi. Modul yakunida tinglovchi irsiy kasalliklarning dastlabki belgilarini aniqlay olishi, skrining natijalari asosida kuzatuvni tashkil etish hamda tug‘ma nuqsonli chaqaloqlarga parvarish va ovqatlantirish yordamlarini to‘g‘ri bajarish ko‘nikmalarini egallaydi.

## **2.5. Modul. Tug‘ruq jarohatlari bilan tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish**

Tug‘ruq jarohatlari yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda eng xavfli shoshilinch holatlardan biri bo‘lib, bu modulda ularning sabablari, turlari va klinik belgilarini o‘rganish nazarda tutiladi. Tinglovchilar tug‘ruq shishi, kefalogematoma, subaponevrotik qon quyilishlar, yuz nervi, bosh va orqa miya jarohatlarida parvarish va yordam ko‘rsatish usullarini o‘zlashtiradilar. Har bir holatda amaliy ko‘nikmalar — jarohatni erta aniqlash, fiziologik o‘zgarishlarni baholash va shoshilinch yordam choralarini ko‘rsatish mashq qilinadi. Modul yakunida tinglovchi tug‘ruq jarohatlarini aniqlay olish, parvarish choralarini to‘g‘ri bajarish va chaqaloqqa yordam ko‘rsatish bo‘yicha mustahkam amaliy bilimga ega bo‘ladi

**2.6.Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish** Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha.Favqulodda vaziyatlar,ularning sabablari, turlari.Tibbiy saralash va triaj asoslari.Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari.Qon ketishni to'xtatish usullari.Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish.Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar,uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish.Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

**4.1. O'quv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi O'quv bazalari.

**4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:**

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliyko'nikmalarnimustaxkamlash treningo'kuvxonasimulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

**4.3. Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

**4.3.1. Konunchilikvame'yoriy-xukukiyxujjatlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining buyruq va me'yoriy hujjatlari.

**4.3.2 Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

**1.Xalmatova B.T., Fayzieva O'.R., Sotiboldieva N.R.** Neonatologiyada hamshiralik ishi. Toshkent, 2014.

**2.Alimov A.V., Ismailova M.A.** va boshq. Neonatologiya. Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti, 2016.

Effektivnoe ispol'zovanie neonatal'nogo oborudovaniya. **Milliy qo'llanma,** Sog'liqni saqlash tizimi muassasalari uchun. Toshkent, 2019.

**3.Milliy qo'llanma:** Neonatologiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimi muassasalari uchun. Toshkent, 2020.

4.Yangi tug'ilgan chaqaloqlar muammolarini hal qilish: shifokorlar, hamshiralalar va akusherlar uchun qo'llanma. **YuNISEF, JSST hamkorligida.** Toshkent, 2018.

- 5.N.P. Shabalov.** Neonatologiya. 7-nashr. Moskva, 2018.
- 6.JSST (WHO).** Standards for improving the quality of care for small and sick newborns in health facilities. Jeneva, 2020.
- 7.JSST (WHO).** Pocket Book of Hospital Care for Children. 2-nashr. Jeneva, 2015.
- AAP (American Academy of Pediatrics). Neonatal Resuscitation Program (NRP), 8th Edition. Itasca, 2021.
- ERC (European Resuscitation Council). Guidelines for Newborn Resuscitation. 2021.
- 8.Stoll B.J., Cloherty J.P. Cloherty & Stark's Manual of Neonatal Care.** 9-nashr. Wolters Kluwer, 2022.
- 9.Fanaroff A.A., Martin R.J., Walsh M.C.** Fanaroff and Martin's Neonatal-Perinatal Medicine. 11-nashr. Elsevier, 2020.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- Reproktiv salomatlik va bexatar onalik. O'quv qo'llanma, seminar ishtirokchilari uchun. Toshkent, 2019 (yangilangan nashr).
- **WHO, UNICEF.** Caring for the Newborn at Home: a training course for community health workers. Geneva, 2015.
- **Umirov S.E.** Xavfsiz immunizatsiya: amaliy qo'llanma. YuNISEF va JSST dasturi asosida. Toshkent, 2020.
- **JSST.** Qo'llanma: Tug'ruq va yangi tug'ilgan chaqaloqlarga xizmat ko'rsatadigan muassasalarda ko'krak suti bilan boqishni himoya qilish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish. Jeneva, 2017.
- **YuNISEF.** Hayotning birinchi soatidan boshlab: chaqaloqlar va yosh bolalarni ovqatlantirishni yaxshilash zarurligini asoslash. Nyu-York, 2016.
- **JSST.** Omon qolish va rivojlanish: har bir kichik va og'ir xasta chaqaloq uchun yordamni tubdan o'zgartirish. Jeneva, 2019.
- **JSST, YuNISEF.** Har bir yangi tug'ilgan chaqaloq uchun harakat rejasi: erishilgan natijalar va o'rganilgan saboqlar. Jeneva, 2020.

#### **4.3.3. Elektron ta'lim resurslari :**

- <http://www.minzdrav.uz> – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi rasmiy sayti, me'yoriy hujjatlar va yangiliklar.
- <http://www.qonber.uz> – Respublika qon quyish tizimi sayti.
- <https://www.unicef.org/uzbekistan> – UNICEF O'zbekiston rasmiy sahifasi.
- <https://www.who.int> – JSST (Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti) rasmiy sayti, *Newborn and Child Health* bo'limi.
- <https://www.cdc.gov/reproductivehealth> – AQSh Kasalliklarni nazorat qilish markazi (CDC), reproduktiv va neonatal salomatlik bo'yicha resurslar.
- <https://www.globalhealthlearning.org> – Global Health Learning Center, bepul onlayn kurslar (neonatal va pediatriya sohalarida).
- <https://openwho.org> – JSSTning onlayn o'quv platformasi, neonatal yordam va reanimatsiya kurslari.

## **5.YAKUNIY ATTYESTASIYA**

### **5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar,o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.**

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020-yil 15-iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.